

MAHALLA XOTIN - QIZLARINING JAMIYATDA TUTGAN O'RNINI

Xoliqulova Maftuna Usmonovna

Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani
Yangi O'zbekiston MFY xotin qizlar faoli

Annotatsiya: Ushbu maqolada mahalla xotin - qizlarining jamiyatda tutgan o'rnini haqida so'z yuritilib, hozirgi kundagi bu borada qilinayotgan islohotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: xotin-qizlar, farzand tarbiyasi, ijtimoiy faollik dinamikasi, resurslari, mehnat munosabatlari, tarbiya maskani, mehr-oqibat bulog'i, ezigulik beshigi.

Bugungi kunda xotin-qizlar farzand tarbiyasi bilan birga turli sohalarda fidoyilik bilan xizmat ko'rsatmoqda. Ularning og'irini yengil qilish, huquq va manfaatlarini ta'minlash maqsadida so'nggi yillarda bir qator qonunlar, farmon va qarorlar qabul qilindi.

O'zbekistonda mahallaning shakllanish davri juda uzoq o'tmishga borib taqalashi bilan birga dunyodagi eng nodir o'zini-o'zi boshqaruv instituti sifatida mashhurligi bilan ham ajralib turadi. Mahallaning o'ziga xos falsafiy tomonlari bor-ki, ularda: mahalla joylagan o'rnini, tabiiy sharoiti, ijtimoiy faollik dinamikasi, resurslari, mehnat munosabatlarining tashkil etilishi, bandlik, ehtiyojmand aholi qatlami, hanuzga qadar mukammal tarzda tadqiqot etilmagan. O'zbekiston iqtisodiyotida, xususan ayollar ijtimoiy faolligi oshganligini so'nggi 4 yil ichida keskin sur'atda oshdi. Davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan buyuk islohotlarda sharqona milliy mafkuramizni tiklash va unga sayqal berish ustuni, tarbiya maskani, mehr-oqibat bulog'i, ezigulik beshigi bo'lgan – mahallalarimizning fuqarolik jamiyati instituti asosini tashkil etuvchi alohida o'ringa ega ekanligini ilmiy asoslash asosiy maqsad etib belgilandi.

“Xotin-qizlar huquqlari bo'yicha dolzarb ikki oy” loyihasi doirasida Sirdaryo viloyati Xovos tuman adliya bo'limi tashabbusi bilan hokimlik, mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi, aholi bandligiga ko'maklashish markazi hamkorligida Yangiyer mahallasida “Ayol, oila, jamiyat” mavzusida tadbir o'tkazildi.



Tadbir xotin-qizlarning jamiyatda tutgan o‘rni va nufuzini yanada mustahkamlash, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar mazmun-mohiyatini keng targ‘ib qilish maqsadida tashkil etildi. Mahallaning shakllanish davri juda uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Qadim davrlardan bo‘yon Markaziy Osiyo hududlarida – xalqning o‘ziga xos turmush tarzi bilan bog‘liq holda shakllangan boy tarixini mujassam etgan jamoaviy tizimiga “mahalla” deb yuritilgan. Aslida har bir xalqning jamoaviy birlikni anglatuvchi dunyoqarash shakli juda qadimiy ma‘naviy meros, urf-odatlar orqali asrlar mobaynida avlodlardan avlodlarga o‘tkazib kelinmoqda. Chunonchi qadim Turon va Eron zaminida eng qadimgi dinlardan biri hisoblangan otashparastlik an‘analari va diniy tafakkur shaklida ham ijtimoiy hayotning o‘sha davriga xos axloqiy-falsafiy g‘oyalari aks etgan. Mahalla Amir Temur davrigacha ham, Alisher Navoiy, Ulug‘bek, Bobur zamonlarida ham, bobokalonlarimiz oq podsho hukmronligi ostida yashagan davrlarda ham, sho‘rolarning "farovonlik" davrida ham bor edi.

Ma‘lumki mahalla o‘z mohiyati va faoliyatiga ko‘ra, faqat hududiy uyushma emas, balki ijtimoiy tuzilma, ya‘ni kishilar turmush tarzining tashkiliy shakli hamdir. Mahallaning asosiy vazifasi o‘ziga tegishli ma‘muriy hududiy birlik doirasida oilalar turmush tarzidan xabardor bo‘lish, oilaviy urf-odat va marosimlarda qatnashish hamda uni boshqarish jarayonlarida ishtirok etishdan iborat. Bu haqda O‘zbekiston birinchi Prezidenti I. Karimov shunday degan edi: “Mahalla hozir xalq ishonchini qozongan adolatli maskan hamda aholini qo‘llab-quvvatlash mexanizmi bo‘lib qoldi. U jamiyatimizda islohotlarni amalga oshirishning ishonchli tayanchi va ta‘sirchan vositasiga aylanmog‘i darkor”[1].



Bugungi kunga qadar ijtimoiy falsafiy tadqiqotlarda xotin-qizlar faolligining oshishiga nisbatan adekvat tarzda jamoatchilik fikri munosabatining shakllanishi masalalari fuqarolik jamiyatini takomillashtirish sharoitida yangi sotsiomadaniy qadriyatlarni tarkib toptiruvchi fenomen sifatida yetarli darajada o‘rganilmagan. 1991 yildan 2020 yilgacha faoliyat olib borgan O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi va Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika kengashi rahbar organlari faoliyati hozirgi davr talablariga javob bera olmaydigan holatga tushib qolayotganligini hisobga olindi. Oqibatda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini moliyalashtirishning yangi tizimiga o‘tish – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 18 fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma‘naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi ПФ-5938-son Farmoni qabul qilindi[5].

Mamlakatimizda oila, xotin-qizlar va keksalarga yordam ko'rsatish, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlik qilish sohasida davlat siyosatini ishlab chiqadigan va amalga oshiradigan idora – "Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi" hamda uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar va tuman (shahar) bo'linmalari tashkil etildi. Yangi vazirlikning tashkil etilishi, fuqarolar yig'inlaridagi tuzilmaviy qayta tashkil etishlar va ularning vazifalarini qayta ko'rib chiqish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini moliyalashtirishning yangi tizimiga o'tishga qaratildi.

Keyingi vaqtda O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi rahbariyati boshchiligida respublika ishchi guruhi tuzilib, barcha hududlarda ayollarni qiynayotgan muammolar aniqlandi. Ushbu muammolar bo'yicha manzilli ish olib borish uchun mutlaqo yangi tizim – "ayollar daftari"ni joriy etilib amaliy ishlarga jonlandi.

2021 yil dastlabki 3 oyida respublika komissiyasi tomonidan ushbu "daftar"larga kiritilgan 80 ming nafar xotin-qizning muammolari hal etildi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj, turmush sharoiti og'ir ayollarning 32 ming nafari ish bilan ta'minlandi. Inqirozga qarshi kurashish jamg'armasi mablag'lari hisobidan salkam 17 ming nafar xotin-qizga amaliy yordamlar ko'rsatildi. Birgina "Har bir oila – tadbirkor" dasturi doirasida 126 mingga yaqin ayollarga imtiyozli kreditlar berildi. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qariyb 215 ming oilaga 6 trillion so'mdan ziyod kredit mablag'lari ajratildi. Qariyb 55 ming nafar xotin-qizlar tadbirkorlik va kasbhunar markazlari tomonidan o'qitildi, hunarmandchilik va kasanachilikka jalb etildi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda turli soha va tarmoqlarda mehnat qilayotgan ishchi va xizmatchilarning 45 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Jumladan, davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1 ming 400 ga yaqin opasingillarimiz rahbarlik lavozimlarida mehnat qilmoqda. Ulardan 17 nafari senator, 16 nafari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati bo'lib, 1 ming 49 75 nafari esa xalq deputatlari mahalliy kengashlari tarkibida faoliyat yuritmoqda. O'nlab opa-singillarimiz "O'zbekiston Qahramoni", "O'zbekiston fan arbobi", "O'zbekiston xalq o'qituvchisi", "O'zbekiston xalq shoiri", "O'zbekiston xalq artisti" singari davlatimizning yuksak faxriy unvonlari, orden va medallariga sazovor bo'lgan. Ularning orasida 500 nafardan ziyod fan doktorlari va akademiklar, minglab fan nomzodlari o'z bilimi va iste'dodi bilan Vatanimiz ravnaqiga astoydil xizmat qilib kelmoqda.

Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari va mahalla tizimlarida ham ayollar ishtiroki kengaydi. Masalan, keyingi davrda bandlik tizimidagi xotin-qizlar hissasi 44 foizdan 45,7 foizga o'sdi. O'z biznesini ochayotgan va salmoqli muvaffaqiyatga erishayotgan tadbirkor ayollarning soni ham oshib bormoqda. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, kichik korxonalar rahbarlarining 40,4 foizini, mo'ljaz tadbirkorlik sub'ektlari rahbarlarining 13,7 foizini xotin-qizlar vakillari tashkil etmoqda.

Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligining AOKAda «Aholini ijtimoiy himoya qilish va sohaga oid qonunchilikdagi so'nggi o'zgarishlar» mavzusida o'tkazilgan brifingida vazirlik matbuot xizmati rahbari Saodat Boymirzayeva hozirgi kunda respublikadagi mahallalar soni 31 taga ko'payib, 9 199taga yetganini ma'lum qildi[7]. Agarda ana shu 9 199ta mahallarda yangi talablar doirasida xizmat ko'rsatayotgan mahalla raislari va uning o'rinbosarlari sonining 40 foizini ayol xotinqizlar tashkil etishini taxminiy hisoblab chiqadigan bo'lsak, unda 3676 nafari mahallalarda fidokorona ishlab kelmoqdalar.

Xulosa :Xulosa qilib aytganda, avvallari ayollar faqat oila ishlari bilan mashg'ul bo'lganlar. XXI asr ayollarining esa farzand tarbiyasi, oilasiga sadoqatidan tashqari boshqa qadriyatlar ham shakllandi. Bu ularning jamiyatda o'z o'rnini topishga intilishi, egallagan kasbi orqali jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shish istagidir, bu ijobiy holatdan tashqari takomillashgan maishiy xizmat ko'rsatish texnologiyalari muayyan darajada qo'l mehnatini osonlashtirdi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. O'zbekiston: iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida– Toshkent., O'zbekiston, 1995. 29-bet. (Karimov I.A. Uzbekistan: on the way to deepening economic reforms - Tashkent., Uzbekistan, 1995. –P.29.)



2. Ishquvvatov V. , Tolipov F. Mahalla: o‘tmishda va bugun. – Toshkent., Navro‘z. 2014. – B.11. (Ishquvvatov V. , Tolipov F. Neighborhood: past and present. - Tashkent., Navruz. 2014. - P.11.)
3. Makovelskiy A.O. Avesta. – Baku., 1960. – S. 89-91. (Makovelskiy A.O. Avesta. - Baku., 1960. - pp. 89-91.)
4. Qur’oni Karim(Tarjima va izohlar muallifi Alovuddin Mansur) – Toshkent., Cho‘lpon, 1992. – 544 b.; Yana qarang: Imom Ismoil al-Buxoriy Hadis. – Toshkent, 1990-1991. I-II-III jild. (The Holy Quran (Translation and commentary by Alovuddin Mansur) - Tashkent, Cholpon, 1992. - 544 pp .; See also: Imam Ismail al-Bukhari Hadith. - Tashkent, 1990-1991. Volumes I-II-III.)
5. <https://lex.uz/docs/4740345>(<https://lex.uz/docs/4740345>) 6. «Xalq so‘zi» gazetasi № 42 27.02.2021(The word of the people №42 27.02.2021) 7. Boymirzayeva S. O‘zbekistonda 31ta yangi mahalla tashkil etildi. Qarang: <https://kun.uz/news/2021/04/08/>(Boymirzaeva S. 31 new mahallas have been established in Uzbekistan. See: <https://kun.uz/news/2021/04/08/>)